https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

S.R.Ahmadqulov
Guliston davlat pedagogika instituti
„Tabiiy fanlar” fakulteti o‘qituvchisi.
G‘aniyeva.O.S., Abdujalilova.N.A.

O'ZBEKISTONNING EKOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik muammolar keltirilgan bo‘lib, Hozirgi paytda hududiy ekologik muammolar O’rta, Qora, Azov, Boltiq, Shimoliy, Karib dengizlari havzasi, Fors qo’ltig’i, Kasbiy va Orol dengizlari, Baykal, Balhash, Ladoga, Onega, Chad, Buyuk ko’llar va boshqa hududlarda mavjud.

Kalit so‘zlar: O’rta, Qora, Azov, Boltiq, Shimoliy, Karib dengizlari havzasi, Fors qo’ltig’i, Kasbiy va Orol dengizlari, Baykal.

O’rta Osiyo va O’zbekistonda vujudga kelgan hududiy ekologik muammo – bu Orol dengizi muammosidir. 1911-1960-yillar davomida Orol dengizi har yili o’rtacha 52 kub kilometr suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m mutlaq balandlikda, akvatoriyasi 66 ming kvadrat kilometr, suvning o’rtacha sho’rlanganlik darajasi 9,5-10 foiz (9,5-10g/l) bo’lib, o’rtacha chuqurligi 16 metrni tashkil qilgan.

O’rta Osiyo va Janubiy Qozog’iston-dagi qo’riq yerlarning o’zlashtirilishi, qator yirik suv omborlarining bunyod etilishi, kanallar, kollektor-zovurlar tizimlarini qurib, ishga tushirilishi natijasida 1961-yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga tushadigan suvlar miqdori kamaya boshladi. Buning oqibatida Orol dengizining sathi pasayib, maydoni kamaya boshladi. Buning oqibatida Orol dengizining sathi pasayib, maydoni qisqara boshladi, suvning sho’rlanganlik darajasi esa orta boshladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo orqali qutilgan suv miqdorining 1926-1996-yillar mobaynida o'zgarib borishi, kub km da.

Orol dengizi suv rejimining o'zgarish.

(A.Y.Asarin ma'lumotlari bo'yicha)

Orol dengizi sathi 1960-1970-yillari 21 sm, 1971-1980-yillarda 68 sm, 1981-1985- yillarda 80 sm ni tashkil qildi.

Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo-dan 1941-1960-yillari 55,2 kub km; 1961-1970-yillari 41,5; 1971-1985-yillari 15,0; 1986-1996-yillari 12,6 kub km suv kelgan.

Hozirgi paytda Orol dengizining qurib qolgan qismi maydoni 3 mln ga ni tashkil qiladi. Dengizning qurigan qismi yalang tekislikdan iborat bo'lganligi uchun yer-osti suvlarining gorizontal harakati qiyin, shuning uchun ularning asosiy qismi bug'lanib tuproqda tuz miqdorining ortib ketishiga olib keldi.

Amudaryo va Sirdaryo quyi qismiga oqib kelayotgan suvning kamayishi oqi-batida bu yerlardagi botqoq va to'qaylar maydoni qisqarib cho'llanish jarayoni rivojlanadi.

Hozirgi vaqtda Orol dengizi muammosi yechimi ikki narsaga –dengiz sathini ma'lum darajada ushlab turishga va Orolbo'yi ekolo-gik sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Orol dengizi sathini ma'lum bir balandlik-da, ya'ni 33 metr mutloq balandlikda ushlab turish uchun Orolga har yili Amudaryo va Sirdaryodan 20 kub kilometr suv tushib turishi lozim.

Orolbo'yi hududida ekologik sharoitni yaxshilashning asosiy yo'li aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qurib qolgan o'zanlar, ko'llarga muntazam ravishda suv yuborish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini to'sish uchun

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qumlarni o'simliklar bilan mustahkamlash, yerlar-ning meliorativ holatini yaxshilash, yaylavlar pichanzorlar maydonini kengaytirishdan iborat.

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilash eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Respublikamiz ekologiyasini muhofaza qilish va uni yaxshilash uchun, ekologik tanazzulning oldini olish, yurtimizning qadimda ma`lum bo'lgan ekologik holatini qayta tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak. Hozirda inson faoliyati ta`sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ta'siri yoki yomon munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar ko'payishiga olib ketdi va bu muammolar avj olib ketdi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qisqarishi, shu bilan birga daraxt va butalarning kesib tashlanishi, yerlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiatga zarar yetkazildi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yog'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy o'zgarib borishiga va muvozanatining buzilishiga olib keldi.

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko`zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste`mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma – xiligini saqlash. Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bilan bog`liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta`minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta`minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo`jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya`ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontenentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to'lqinlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi.

Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o‘tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq ko‘rsatib o‘tildi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. Nigmatov A.N. ekologiyaning nazariy asoslari. ekologiya va atrof muhit Muhofazasi ta’lim yo’nalishi va mutaxassisligi uchun o’quv qo’llanma.— mas’ul muharrir b.f.d. A.S.Yuldashev — T., 2013.

Internet materiallari

1. :/Users/User/Downloads/o-zbekiston-hududidagi-ekologik-muammolar-va-ularni-bartaraf-etish-masalalari%20(1).pdf
2. https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-hududidagi-ekologik-muammolar-va-ularni-bartaraf-etish-masalalari?ysclid=mb6rizq34f868871869